

MEROS ILMI TARIXI VA UNING MOHIYATI

*O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi
2-kurs magistranti - Ismoilov Akbar*

Annotatsiya

Meros ilmini o‘rganish nafaqat shaxsning moddiy haq-huquqlarini himoya qilish balki jamiyat barqaror bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy adolat tizimini o‘rnatish demakdir. Meros ilmi tarixiga nazar solsak har qanday zamon va makonda inson vafot etganidan so‘ng undan qolgan mol-mulkni uning vorislariga taqsimlash ijtimoiy jihatdan muhim bo‘lganini kuzatamiz. Shu sababdan azaldan deyarli barcha jamiyat va davlatlarda vasiyat va meros taqsimoti masalalarini tartibga soluvchi huquqiy normalari u yoki bu ko‘rinishda mavjud bo‘lgan. Ushbu maqolada meros ilmi tarixi va mohiyati haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga, islom shariati huquqidagi meros instituti ushbu azaliy ijtimoiy hodisani qanday takomillashtirgani bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qur‘on, sunnat, huquq, meros, huquqiy tizim, xristianlik, yahudiylilik, shariat, marhum, vasiyat, voris.

Islom shariatida meros hukmlarining mohiyatini anglab yetish uchun, undan avvalgi jamiyatlarda vorislik huquqlari qanday bo‘lgani va ularning rivojiga nazar solishdan boshlash maqsadga muvofiqdir deb hisoblayman.

Xamurapi qonunlari. Qadimgi Babil davlati qonunchiligida meros masalalari. Mazkur to‘plamga ko‘ra merosga eng avval o‘g‘illar, o‘g‘illar bo‘lmasa qizlar, keyinchalik qizlar ham o‘g‘illar bilan teng ravishda meros olish huquqiga ega bo‘lganlar. Agar meros qoldiruvchining farzandlari va nevaralari bo‘lmasa, u holda aka-ukalar, ular bo‘lmasa, amakilari merosxo‘r sifatida ulush olganlar. Agar meros qoldiruvchining o‘g‘illaridan biri o‘lgan bo‘lsa va undan farzandlar qolgan bo‘lsa, u holda ular otasining o‘rniga merosxo‘r bo‘lib, tegishli ulushni olganlar.

O‘lgan onaning sep-sidirg‘asi bolalar o‘rtasida teng taqsimlangan, bu mulk otaga o‘tmagan (x.q.167-modda). Agar xotin bola ko‘rmay vafot etsa, u holda er qaynonasidan qalin pulini qaytarib olib, xotining sep-sidirg‘asini qaytarib bergan (x.q.163-modda)¹.

Manu qonunlari. Qadimgi Hindistonda meros masalalari quyidagicha bo‘lgan. Oilada barcha mol-mulklar umumiy boylik hisoblangan, lekin oila boshlig‘i tomonidan idora etilgan. Meros barcha o‘g‘illar o‘rtasida teng taqsimlangan yoki katta o‘g‘il qo‘lida qolgan, u esa oila boshlig‘iga aylangan va boshqa oila a‘zolariga homiylik

¹ Haydarali Muhamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. I qism. –T.: 2005, – B.87-97.

qilgan. Qizlar merosdan mahrum bo‘lganlar, lekin aka-ukalar o‘z ulushlaridan 1/4 qismini ularga sepsidirg‘a sifatida ajratishlari lozim bo‘lgan.

Li Szi qonunlari. Qadimgi Xitoy qonunchiligidagi meros taqsimotida avvalo bolalar, nabiralar agar ular bo‘lmasa so‘ngra boshqa qarindoshlar qonuniy merosxo‘rlar sifatida e‘tiborga olingan. Oilada katta o‘g‘il meros olishda katta imtiyozga ega bo‘lgan. Ota o‘lganidan so‘ng oila mulki to‘ng‘ich o‘g‘ilga o‘tgan va u oila boshlig‘iga aylanib, boshqa oila a‘zolari ustidan hukmronlik qilish huquqiga ega bo‘lgan².

Sparta qonunlari. Afinada meros huquqi qonunlar, yoki vasiyat bo‘yicha taqsimlangan. Agar marhum vasiyat qoldirmagan bo‘lsa, meros qonunchilik bo‘yicha quyidagi tartibda taqsimlangan. Merosga birinchi navbatda marhumning o‘g‘illari haqli hisoblangan. O‘g‘illar bo‘lsa, qizlar merosdan ulush olmaganlar. Qizlar faqat turmushga chiqayotganlarida aka-ukalaridan sep-sidirg‘a olishlari mumkin bo‘lgan. Meros o‘g‘illar o‘rtasida teng taqsimlangan. Nikohsiz tug‘ilgan bolalar ota mulkiga merosxo‘r sifatida da‘vo qilish huquqiga ega bo‘lmaganlar.

Sali haqiqati. Franklar davlatida merosxo‘rlik qonunlari. Merosning qonun bo‘yicha va vasiyat bo‘yicha turlari bo‘lgan. Qonun bo‘yicha meros ko‘chadigan va ko‘chmas mulklarga nisbatan turlicha amalga oshirilgan. Ko‘chadigan mulklar birinchi navbatda bolalar, so‘ngra ona, aka-ukalar va opa-singillar, onaning opa-singillari, otaning opa-singillari, yaqin qarindoshlarga meros qilib qoldirilardi. Merosni taqsimlashda ona urug‘iga nisbatan bunday imtiyozlarning o‘rnatilganligi matriarxat qoldiqlarining saqlanib qolganligidan guvohlik beradi.

Franklarda o‘lgan kishining mol-mulki oilaga, urug‘ga, yashab turgan qarindoshlariga tegishli deb hisoblanardi. Vasiyat bo‘yicha meros hadya yo‘li bilan qoldirilishi mumkin edi. Umumiy qoidaga xilof ravishda, rim huquqi ta‘siri ostida vasiyat bo‘yicha meros instituti “Teodorix edikti”³da mustahkamlandi.

Xristianlik joriy qilinishi bilan o‘lgan kishining mol-mulki cherkovga hadya tariqasida o‘tkazila boshlangan. Bu o‘lgandan keyingi hadya franklarda va ingliz-saklarda keng tarqalgan bo‘lib, to‘la ma‘nodagi vasiyat emas edi.

Ilk Angliya davlatida meros masalalari. O‘rta asrlarda Angliyada meros qoldirishning qandaydir yagona tizimi mavjud emas edi. "Umumiy huquq" vasiyat bo‘yicha merosni nazarda tutmaydi. Vasiyat amalda ishonib topshirilgan mulk instituti bilan birga joriy etilgandi⁴. Vaqt o‘tishi bilan ishonib topshirilgan mulk voyaga yetmaganlar tomonidan qonun bo‘yicha ham, vasiyat bo‘yicha ham meros qilib olinishi

² Haydarali Muhamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. I qism. –T.: Toshkent Davlat yuridik instituti nashriyoti, 2005. – B.105.

³ Teodorix edikti – Rim huquqining tashkiliy qismi bo‘lib, u qulchilikni qonunlashtirgan.

⁴ Haydarali Muhamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. I qism. –T.: Toshkent Davlat yuridik instituti nashriyoti, 2005. – B.108.

tartibini belgilaydigan bo‘ldi, chunki har ikki holda ham ulaming mulkini boshqarish uchun mulk ishonib topshiriladigan shaxsni tayinlash talab etilardi⁵.

Tayxo Yoro Ryo. Qadimgi Yaponiya davlatida meros masalalari. “Tayxo Yoro Ryo‘da fuqarolik, nikoh-oila, jinoyat va ma‘muriy huquq normalari mavjudligini kuzatish mumkin. “Meror qilib olish va meror qilib qoldirish haqida”gi XIII qonun amaldorlardan boshlab imperatorgacha aslzodalar uylarining boshliqlari unvonlarini meror qilib qoldirish (taxt vorisligi qoidalari) haqida, shuningdek ular tomonidan tuzilgan nikohlarning qonuniylik shartlari haqida normalar belgilaydi⁶.

Yahudiylik dinida meros masalasi. Tavrotda marhum qoldirgan merosga da‘vogarlikning muayyan ketma-ketligi belgilangan. Kishi marhumga qarindoshlik jihatidan qanchalik yaqin bo‘lsa, merosiga egalik qilishga ham shunchalik haqliroq bo‘ladi.

Marhumning birinchi darajalik merosxo‘ri bu uning o‘g‘lidir. O‘g‘il barcha merosni oladi. Agar marhumning bir-nechta o‘g‘illari bo‘lsa, ular merosni o‘zaro teng miqdorda bo‘lib oladilar. Ammo o‘g‘illarning eng kattasi ya‘ni to‘ng‘ich o‘g‘il, qolgan ukalariga nisbatan merosdan ikki barobar ko‘p ulush olishga haqlidir. (Shulxan Arux.277:1).⁷

Agar marhumning o‘g‘il farzandlari ham, yoki vafot etgan o‘g‘illarining farzandlari ham ya‘ni o‘g‘il nabiralari, bo‘lmasa, merosni olishga keyingi nomzod bu marhumning qizlari bo‘ladi. Huddi yuqorida aytilganidek, agar marhumning qiz farzandlari ham uning hayotligida vafot etgan bo‘lsalar meros olish huquqi ularning farzandlariga o‘tadi. Bu o‘rinda ham o‘g‘illar qizlardan yuqori turadilar. Agar marhumning farzandlari umuman yo‘q bo‘lsa, faqatgina shu holatda meros olish huquqi marhumning otasiga o‘tadi. Marhumning biologik otasi merosxo‘r bo‘lishi mumkin. O‘gay otasi emas. Otasi bir ona boshqa farzandlarning har-biri o‘z onasiga meros qoldirishi mumkin. Oilada meros ota tarafga qarab taqsimlanadi⁸.

Masihiylik dinida meros taqsimlash tartibi. Masihiylik dinida meros huquqlariga ta‘luqli hukmlar “Eski Ahd”⁹da keltirilgandir. Bibliyaning ikkinchi qismi bo‘lgan “Yangi Ahd”¹⁰da esa gap asosan ma‘naviy-ruhiy boylik va ularning merosi haqida boradi. Eski yoki Qadimgi ahd yahudiyilar va xristianlar uchun bir bo‘lgani sabab, meros masalalari haqidagi hukmlar ham umumiy holda bir xildir.

⁵ O‘sha manba. – B.110.

⁶ O‘sha manba. – B.115.

⁷ Haydarali Muhamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. I qism. –T.: Toshkent Davlat yuridik instituti nashriyoti, 2005. – B.120.

⁸ Гансфрид Шломою Кицур шульхан арух. – Иерусалим.: Шамир, 1994. С. 159.

⁹ Eski Ahd – Nasroniylikda “Bibliya”ning ikki qismidan, avvalgi qism kitoblar majmuasi. 39 ta “Tanax” kitoblaridan tashkil topgan.

¹⁰ Yangi Ahd - Nasroniylikda “Bibliya”ning ikki qismidan, keyingi qismi bo‘lib, 27 ta kitoblar majmuasidan tashkil topgan.

Eski ahdda ko‘ra yer egasi yerini muxtojlikdan sotishga majbur bo‘lgan bo‘lib begonaga sotgan bo‘lsa ham, muchal yili ya‘ni har ellik yilda ushbu yer birlamchi egasiga yoki uning merosxo‘riga qaytarilishi lozim bo‘lgan.

Masihiylikka ko‘ra ham meros o‘g‘il merosxo‘rlar o‘rtasida “merosxo‘rlar soni qo‘shuv bir”, tarzida bo‘linadi. To‘ng‘ich o‘g‘il ikki hissa oladi. Eski ahd turkumiga kiruvchi “Bo‘lmoqlik” kitobidagi (1471-1450 mil.avv) hikoyada Isav o‘zining merosdagi, to‘ng‘ich o‘g‘illik, haqqini Yoqubga sotgani keltiriladi. Shunga ko‘ra Isav o‘zining to‘ng‘ichlik huquqini sotgani sabab merosdagi qo‘shimcha hissadan ayrilgan, to‘liq ulushidan emas.

Johiliyat davridagi arablarning merosga oid tushunchalari ham yuqorida zikr etilgan xolatdan deyarli farq qilmagan. Ularda faqat erkak kishigina meros qoldirish huquqiga ega bo‘lgan. U ham mol-mulkini o‘zi hoxlagan shaxsga qoldirgan. Agar meros qoldiruvchining tutingan otasi yoki biror xomiysi bo‘lsa, ana ular ham merosxo‘r hisoblangan. Vafot etgan kishi vorisni o‘zi tayinlab ketmagan bo‘lsa, uning mol-mulki ayollar, bolalar, kasal yoki keksalardan bo‘lak qabilaning kuch-qudratga ega, nufuzli biror kimsasiga o‘tib ketgan. Hatto ba‘zilar ayollarni ham meros qatoriga qo‘shib o‘z merosxo‘riga vasiyat qilib qoldirganlar¹¹.

Islom huquqida meros masalasiga katta e‘tibor bilan qaralib, bunday nomaqbul, adolatsiz urf-odatlariga chek qo‘yilgan. Chunki bu juda muhim ijtimoiy hodisadir. Toki bunday xassos masala adolatli hal etilmas ekan, jamiyatdagi barqarorlikka putur yetib, xotirjamlik bulmaydi. Shu bois islom huquqida merosni to‘g‘ri taqsimlashga katta ahamiyat berilgan. Islom huquqi (Fiqh) dunyoning keng ko‘lamda rivojlangan huquqiy tizimlaridan biri sifatida, uzoq muddatli taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tib, barcha islom dunyosi xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida unutilmas iz qoldirib kelgan.

Islom shariatida meros ilmining sha‘ni ulug‘dir, uning asrlardan hech biri ham bexojat bo‘lmagan shariat ilmlari orasida xos o‘rni bordir. Shu bilan birga u birinchi bo‘lib unutiladigan va qalblardan birinchi bo‘lib ko‘tariladigan ilmdir-ki hatto bir zamon kelib, unda ikki kishi meros taqsimotida kelisholmay qoladilar va ularga ushbu masalani yechimini aytib, fatvo bera oladigan shaxsni topa olmaydilar. Shu sababdan rosululloh (s.a.v) biz musulmonlarga faroiz (meros) ilmini o‘rganish va uni boshqalarga o‘rgatish orqali ushbu ilmni muhofaza qilishga buyurdilar.¹²

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, Nabiy (s.a.v) shunday dedilar, *“Faroizni o‘rganinglar va o‘rgatinglar, albatta u limning yarmidir va u unutiladi, va u (faroiz ilmi) ummatimdan birinchi bo‘lib olib qo‘yiladi”*, Ibn Moja va Daruqutniy rivoyati.

¹¹ Azhari sharif ulamolari kengashi. Islom fiqhida meros. – Qohira.: Darus salam, 2001. – B.6.

¹² Azhari sharif ulamolari kengashi. Islom fiqhida meros. – Qohira.: Darus salam, 2001. – B. 7.

Arablarda Islomdan oldin mavjud bo‘lgan meros nizomi va shariatning unga nisbatan munosabatiga nazar solaylik. Bu borada manbalarda bir-qancha ma’lumotlar mavjud. Meros, mulkning ko‘chishligi sabablaridandir. Chunki mollar va moliyaviy huquqlar meros qoldiruvchidan (muvarris) u vafot etgach, o‘rinbosarlik yo‘li bilan yoki shariat hukmiga binoan, merosga ta’luqli huquqlar bajarilganidan so‘ng merosxo‘rlariga (varosa) ko‘chadi. Arabalar johiliyat davrida ikki narsaga ko‘ra meros qoldildilar, ular: nasab va sabab¹³.

Nasabga yoki qarindoshlikka ko‘ra meros olishga kelsak: unga ko‘ra ot mina oladigan, dushman bilan jang qila oladigan va g‘anima (o‘ljalar)ni qo‘lga kirita oladigan erkaklardan katta o‘g‘illargagina meros tegar edi. Eng katta merosni eng kattaga berar edilar. Agar vafot etgan odamning o‘g‘illari bo‘lmasa, uning nasabga ko‘ra eng yaqin va eng katta qarindoshlari, mayitning akasi, amakisi va shu kabi asabalari, merosga haqliroq sanalar edi. Ayollar, o‘g‘il yoki qiz bo‘lsin yoshbolalar esa umuman meros olmas edilar. Sababga ko‘ra meros olish kelsak, unga ko‘ra meros o‘g‘il tutunish “tabanniy” sababli ya’ni bir kishi o‘ziga bir bolani o‘g‘il tutungani haqida e’lon qilishi va uning vafotidan so‘ng tutungan o‘g‘il huddi pushtidan bo‘lgan o‘g‘il kabi barcha merosni olishi ila amalga oshiriladi edi.

Tabanniy johiliyat davrida arablar orasida juda keng tarqalgan odatlardan biri edi. Mazkur o‘g‘il tutunish odatiga ikki ish(amaliyot) biriktirilgan(bog‘liq) edi. Birinchisi: Johiliyat arablari tabanniyni nikohni taqiqlovchi sabablardan biri qilib olgan edilar. Unga ko‘ra tutungan ota, tutungan o‘g‘il ayol bilan ajrashganidan so‘ng yoki o‘g‘ilning vafotidan keyin ham, uylanishi mumkin emasdi.

Ikkinchisi: Arablar tabanniy, o‘g‘il tutunishni, yuqorida aytilganidek, meros olish sabablaridan bir sabab qilib olgan edilar.

Bundan tashqari, sabab bilan meros olishga yana qasam yoki kelishuv orqali meros olishlar ham kirar edi. Agar ulardan biri vafot etsa uning sherigi mazkur qasamga ko‘ra meros olgan. Demak, Islomdan oldin arablar yoshbolalar va ayollarga, ular qabilani himoya qilmaydi, dushman bilan jang qilmaydi va g‘animalar olmaydi deb hujjat qilib olib, merosdan bermas edilar.

Johiliyat arablari shunday qilar edilar, illo urush qila oladigan odamga merosni berardilar va qolganlarning haqqini paymon etar edilar. Johiliyat arablarining mantiqi shunday edi, ba’zi qalblarga shu kabi Allohning farziga, odil va hikmatli taqsimotiga teskari bo‘lgan hayollar kelgan. Afsuski hozirgi zamon johiliyatining mantig‘i ham shu kabidir.

Islom dini kelgach arablarni merosdagi o‘z odatlariga bir muddat tashlab qo‘ydi. So‘ngra Islom o‘g‘il tutunish masalasini Alloh subhanahu va taoloning “va asrandi bolalaringizni sizga farzand ham qilgan emas”, degan oyati karimasi ila botil ya’ni yo‘q

¹³ Muhammad Toha Xalifa. Ahkamul Mavaris. – Qohira.: Darus salam, 2008. – B. 694.

qildi. Boshqa bir oyatda “Ularni o‘z otalari nomi bilan chaqiringlar. Ana shu Allohning nazdida to‘g‘ridir. Agar otalarini bilmasangiz, ular sizning din qardoshlaringiz va do‘stlaringizdir.”, deb marhamat qiladi. Yuqoridagi oyatlarga ko‘ra arablar tabanniya bog‘lagan narsalari, uni nikohni taqiqlovchilardan bir sabab deb e‘tiborga olish botil qilindi. Bunga sabab o‘g‘il tutungan kishiga tutungan o‘g‘li vafot etsa yoki xotiniga taloq berganidan so‘ng, unga ya‘ni tutungan o‘g‘lining xotiniga uylanishi muboh bo‘ldi. Ushbu hukm amaliyotga nabiy (s.a.v) ning shaxslarida, o‘zlari o‘g‘il tutungan Zayd ibn Haris taloq qo‘yganlaridan so‘ng Zaynab bint Jahshga nikohlanishlari bilan tatbiq bo‘ldi. Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “Qachonki Zayd undan o‘z hojatini ado etgach, Biz seni unga uylantirdik. Toki mo‘minlarga o‘z asrandi bolalari xotinlarida ulardan hojatlarini ado qilishgach, tanglik bo‘lmasin deb. Allohning amri amal qilinishi lozim bo‘lgandir”¹⁴.

Bundan tashqari, Islom shariati er-xotinlikni ham meros sabablaridan bir sabab qilib e‘tiborga oldi, unga ko‘ra nikoh rishtasi sabab er va xotinlar biri-biridan meros oladilar. “Ota-onalar va qarindoshlar qoldirgan narsada erkaklarning nasibasi bor. Ota-onalar va qarindoshlar qoldirgan narsada ayollarning nasibasi bor. U oz bo‘lsin, ko‘p bo‘lsin – farz qilingan nasibadir”, degan oyati karimasiga binoandir. Tafsilan ya‘ni mufassal botil qilishi esa, Alloh taoloning: “Alloh sizga farzandlaringiz haqida vasiyat etib, bir o‘g‘ilga ikki qiz nasibasicha berishni amr etdi. Agar ular ikkitadan ko‘p bo‘lsalar, ularga u qoldirganining uchdan ikkisi. Agar qiz bitta bo‘lsa, unga yarmi”, degan oyatiga ko‘radir.

Yana Alloh subhanahu va taoloning er-xotinlar haqqi borasida shunday marhamat qiladi: "ولهن الربع مما تركتم إن لم يكن لكم ولد فإن كان لكم ولد فلهن الثمن مما تركتم"

“Ularga siz qoldirgan narsaning – agar bolangiz bo‘lmasa – choragi tegadi. Agar bolangiz bo‘lsa, ularga siz qoldirgan narsaning sakkizdan biri tegadi”. “Agar bir odam o‘lsa-yu, uning bolasi bo‘lmasa, singlisi bo‘lsa, unga marhumdan qolganning yarmi beriladi. Agar singilning bolasi bo‘lmasa, u hamma merosni oladi. Agar singil ikkita bo‘lsa, ular marhumdan qolganning uchdan ikkisini olarlar. Agar (merosxo‘rlar) erkak-ayol birodarlar bo‘lsalar, bir erkak ikki ayol hissasi asosida oladilar. Adashmasligingiz uchun Alloh bayon qilmoqda. Alloh har bir narsani biluvchi zotdir”¹⁵.

Albatta, bu umumiy qoida ila Islom o‘n to‘rt asrdan beri ayollarga ham meros beradi va hatto ularning merosdagi haqlarini erkaklarnikidan ham ustun qo‘yadi. Huddi shu qoidaga ko‘ra, Islom shariati, johiliyat haqlarini yegan va zulm qilgan yoshbolalarning huquqlarini ham himoya qildi.

Albatta, Islomning merosdagi uslubining xususiyati, uning barcha qonuniyatlaridagi xususiyati kabi, kunduzgi quyoshdek yaqqol ko‘zga tashlanadigan, aniqdir. Darhaqiqat ushbu nizom haqlarni o‘z haqdorlariga yetkazdi. Agar johiliyat

¹⁴ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsihi Hilol. Juz 4. – T.: Hilol-Nashr, 2009. – B.592.

¹⁵ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsihi Hilol. Juz 1. – T.: Hilol-Nashr, 2009. – B.502 – 503.

faqatgina kuchlilarni rioya qilib, zaiflarni merosdan mahrum qilgan bo‘lsa, Islom zaiflar haqida ham qayg‘urgan va ularning rioyasini qilgan. Sababi, Rosulullohning (s.a.v): “*Merosxo ‘rlaringni boy qilib tashlab ketmoqliging, ularni insonlardan yordam so‘rab yuradigan, faqir qilib tashlab ketmoqligingdan yaxshidir*”¹⁶, degan hadislariga binoan, albatta zaiflar g‘amxo‘rlik va yordamga haqliroqdirlar. Islom kuchlilarni ham merosdan mahrum qilgani yo‘q, kimdagi meros sabablaridan bir sabab toplisa va uni merosdan to‘suvcchi sabab bo‘lmasa, katta bo‘ladimi kichikmi yoki kuchli bo‘ladimi zaifmi meros olaveradi.

Johiliyat merosda faqat manfaat keltiradigan taraf haqqida qayg‘urgan, ot choptira oladigan, g‘animalar qo‘lga kiritadigan va qavmni himoya qiladiganlardan boshqalarga merosdan ulush bermagan bo‘lsalar ham, ulardan boshqalarda manfaat yo‘q degani emas. Balki ulardan boshqalar mutavaffa (vafot etgan kishiga) yaqinroq va foydaliroq bo‘ladi, Alloh subhanahu va taolo marhamat qiladi:

"أباؤكم وأبناؤكم لا تدرون أيهم أقرب لكم نفعا"

“Otalaringiz va farzandlaringiz qay birlari sizlarga manfaati yaqinroq ekanini bilmassizlar”.¹⁷ Albatta bu adolat, g‘amxo‘rlik va marhamat nizomidir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ilmiy asarlar, risolalar

1. Shayx Muhammad Ali Sobuniy. Islom shariatida meros ilmi. Tarj:Shayx MuhammadSodiq MuhammadYusuf – T.: Hilol-Nashr, 2022. B. 238.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Juz 1. – T.: Hilol-Nashr, 2009. B. 663.
3. Abdulaziz Mansur. “Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri”. – Toshkent: TIU, 2001. B. 617. Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent, Movarounnahr, 2017. – 328 b.
4. Haydarali Muhamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. I qism. –T.: Toshkent Davlat yuridik instituti nashriyoti, 2005. B. 105.

Xorijiy tildagi adabiyotlar

5. Muhammad Toha Xalifa. Ahkamul Mavaris. – Qohira.: Darus salam, 2008. B. 694.
6. Azhari sharif ulamolari kengashi. Al-mavaris fi fiqhil islamiy. – Qohira.: 2001. B. 326.
7. Sajovandiy Sirojiddin Hanafiy. Faroizi Sirojiya. – Karachi.: Maktaba Bushro, 2010. B. 240.
8. Shayx Mulla Nizomiddin. Fatavoi Hindiya. Juz 6. – Bayrut.: Daru Kutubil Ilmiya, 2000. B. 542.

¹⁶ Asg‘ar Ali Robbaniy. Jomeu Termiziy va Fiqhul Hanafiy. Juz 7. – T.: Maktabatu Robbaniya Qoratashiy, 2020. – B. 423.

¹⁷ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Juz 1. – T.: Hilol-Nashr, 2009. – B.496.